

II JAHON URUSHI ARAFASIDA GERMANIYA VA SSSR

Qarshiyev Do'stbek Qurbonmurod o'g'li

Soibnazarov Ali Baxromovich

Abdullayev Dilshodbek Abdulla o'g'li

Termiz Davlat Pedagogika Instituti 3 bosqich talabalari

Annontatsiya: 2 jahon urushi arafasida Yevropa mamlakatlari Germaniya agressiyasini sharqqa ya'ni SSSR ga burishga harakat qildi. Lekin Moskva ham o'z navbatida ularning rejasini buzdi va Germaniya bilan maxfiy bitim tuzdi. Ushbu maqolada shu haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: Molotov, Ribbentrop, Sovet, Gitler, Stalin, Polsha, Fransiya, Angliya, Finlandiya, Yevropa.

1939 yil 23 avgustda Germaniya va SSSR o'rtasida hujum qilmaslik to'g'risida tuzilgan bitim har ikki davlat uchun ham katta ahamiyat kasb etdi. Germaniya ham Sovet ittifoqi ham bitimdan imkon qadar foydalanishga urindilar. 1939 yil 19 avgustda sovet-german kredit shartnomasi tuzildi. Unga ko'ra SSSR imtiyozli shartlarda 2 yil muddatga 200 mln marka kredit olib, eng zamonaviy uskunalarni Germaniya korxonalarida ishlab chiqarish uchun buyurtma berish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunga javoban Germaniya SSSRdan 180 mln. marka miqdorida xom ashyo olishga ega bo'lishi, Uzoq Sharqdan 50 %li chegirma bilan tranzit mahsulotlarini olish huquqini qo'lga kiritdi. 1940 yil ikki davlat o'rtasida 1942 yil 1 avgustgacha bo'lgan muddatga 600-700 mln. markacha miqdorida bo'lgan xo'jalik shartnomasi imzolandi. Germaniya va SSSR o'rtasidagi aloqalar, Yevropadagi ko'pgina davlatlarda norozilikka olib keldi. Germaniya Polsha, Fransiya, Angliya va g'arbiy Yevropadagi davlatlar bilan urush holatida bo'lgan vaqtda Sovet-German iqtisodiy asoslari Germaniyaga qo'llanilayotgan iqtisodiy qamal choralarining darz ketishiga olib keldi. Boshqacha qilib aytganda, SSSR agressorga iqtisodiy yordam ko'rsatmoqda edi. SSSR va Germaniya o'rtasidagi iqtisodiy va savdo aloqalari Sovet Ittifoqining Sharqiy Yevropa davlatlari bilan savdo munosabatlariga ta'sir ko'rsatdi. 1939-1940 yillarda SSSRning Sharqiy Yevropa davlatlari bilan umumiy savdo hajmi keskin kamayib ketdi va 1940 yilda 14,4 mln. rublni tashkil etdi. Jumladan, bu raqam Bolgariya bilan 8,7 mln. rublni, Vengriyada - 0,7, Ruminiyada - 0,6, Chexoslovakiyada - 4,2; Yugoslaviyada - 0,2 mln rublga teng bo'ldi. SSSR va Germaniya o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalar SSSRning AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa davlatlar bilan aloqalariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1940 yil mayida AQSHning SSSRdagi eksport

hajmi-500 mln. dollarga tushib qoldi. Faqatgina 1941 yil 22 yanvaridagina AQSH davlat departamenti SSSRga nisbatan qo'llanilgan "axloqiy embargo"ning bekor qilinganini e'lon qildi. Biroq, I.V.Stalin 1939 yil 23 avgustdagi bitimga ishonib xatoga yo'l qo'ydi. U Gitler bilan munosabatlarga "do'stlik" maqomini berishga urinib, u bilan keyin ham murosas qilishni ko'zladi. 1939 yil 28 sentabrda Moskvada do'stlik haqidagi sovet-german bitimi imzolandi. Germaniya tashqi ishlar vaziri I.Ribbentrop nomiga yo'llangan telegrammada Stalin shunday deb yozdi: "Germaniya va Sovet Ittifoqi xalqlarining qon bilan mustahkamlangan do'stligi uzoq va mustahkam bo'lishi uchun barcha asoslar mavjud". Bu do'stlikning qanday "qon" bilan mustahkamlangani ham noma'lum edi. Gitler SSSR bilan tuzilgan bitimlarga oz ahamiyat berdi. 1940 yilning yozidanoq Germaniyada SSSRga qarshi hujum rejasini ishlab chiqilayotgan bo'lsada, Germaniya hukumati SSSR XKK raisi, tashqi ishlar xalq komissari V.M.Molotovni muzokoralar o'tkazish uchun Berlinga taklif qildi. Molotovning Berlinga qilgan tashrifi 1940 yil 13 oktabrda Stalinga maxsus xat bilan murojaat qilgan "Uchinchi reyx"ning I.Ribbentropning taklifiga binoan 12-13 noyabrlarda bo'lib o'tdi. Uning asosiy mohiyati shundan iboratki ediki, Gitler Stalinga 1940 yil sentabrda imzolangan uch tomonlama bitimga qo'shilishi va uning ishtirokchilari bo'lgan - Germaniya, Italiya va Yaponiya bilan har mamlakatning keng masshtabdagi qiziqishlari doirasini aniqlashni taklif qilgandi. 1940 yilning ikkinchi yarmidan e'tiboran Germaniyaning sa'yi-harakati SSSRga qarshi urushga tayyorgarlik va agressiv blokni kengaytirishga qaratilgan edi. Fyurer buyruqiga ko'ra, bosh shtab maxfiy "Barbarossa" rejasini ishlab chiqdi. 1940 yilning 18 dekabrda Gitler 21-direktivani tasdiqladi. Uning asosiy maqsadi Sovet davlatini to'liq yo'q qilish va bu yerdagi xalqlarni qulga aylantirishdan iborat edi. SSSR bilan yaxshi munosabatlarni o'rgatishga bo'lgan urinishlari niqobdan boshqa narsa emasdi. SSSRga hujum qilish va uni bosib olish Germaniyaning umuman agressiv har sohada hal qiluvchi bo'g'in deb qaraldi. SSSR qurolli kuchlarini tor-mor keltirish uchun deyarli Germaniya quruqlik qo'shinlarining hammasidan, shuningdek Finlyandiya, Ruminiya, Vengriya qo'shinlaridan ham foydalanish ko'zda tutildi. Quruqlik qo'shinlarini qo'llab-quvvatlash uchun Germaniya harbiy havo qo'shinlarining asosiy qismi jalb etildi. Harbiy xavo kuchlariga urushning boshida havoda ustunlikni qo'lga olish va asosiy yo'nalishlardagi harbiy harajatlarni qo'llab-quvvatlash vazifasi yuklatildi. Bundan tashqari, Germaniya, Finlyandiya va Ruminiya harbiy dengiz floti kuchlaridan ham foydalanish rejalashtirildi. Fashistlar Germaniyasi va uning Yevropadagi ittifoqchilari yaxshi qurollangan va texnika bilan to'la ta'minlangan katta harbiy kuchni tayyorlashga muvaffaq bo'ldi. "Barbarossa" rejasiga ko'ra, nemislar SSSRga hujum qilish uchun 153 ta diviziyani (shulardan 33 tasi tank va motorlashtirilgan qismlar)




ajratdi. Germaniyaning ittifoqchilari (Finlyandiya, Vengriya va Ruminiya) esa SSSRga qarshi 37 ta diviziyani tayyorlashdi. Shunday qilib, hammasi bo'lib 190 ta diviziya SSSRga hujum qilish uchun tish-tirnog'igacha shay holatda turar edi. Germaniya Sharqda tobora ko'p kuch to'pladi. Fransiya tor-mor etilgandan so'ng 500 mingga yaqin nemis-fashist qo'shini Polshaga keltirildi. Urush boshlanishi arafasida esa, 190 ta diviziyani 166 tasi SSSRning g'arbiy chegaralari yaqiniga keltirildi. 1939-yil 23-avgustdagi Germaniya va Sovet Ittifoqi o'rtasida hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimda ikkala kelishayotgan tomonlar ham alohida, ham boshqa davlatlar bilan hamkorlikda bir-birlariga nisbatan hech qanday zo'ravonlik, agressiya harakatlari va hujum uyushtirmaslik majburiyatini oladilar. Kelishayotgan tomonlardan biri uchinchi davlatning harbiy harakatlari ob'ektiga aylangan taqdirda, boshqa Kelishayotgan Tomon bu davlatni hech qanday shaklda qo'llab-quvvatlamaydi. Ikkala kelishayotgan Tomonlarning hukumatlari kelajakda bir-birlarini ularning umumiy manfaatlariga daxl etuvchi ma'lumotlardan xabardor etish uchun aloqa qiladilar. Kelishayotgan tomonlarning hech biri boshqa tomonga bevosita yoki bilvosita qarshi qaratilgan ittifoqlarda ishtirok etmaydi. Ushbu Bitim imkon qadar qisqa muddatda tasdiqlanishi lozim. Bitim imzolanganidan so'ng darhol kuchga kiradi. Qo'shimcha maxfiy ahdnoma Germaniya va SSSR o'rtasida hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimni imzolash chog'ida quyida imzo chekuvchi ikki tomon vakillari o'ta maxfiy tartibda Sharqiy Yevropadagi o'zaro ta'sir doiralarini chegaralash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqdilar. Bu muhokama quyidagi natijalarga olib keldi 1. Boltiqbo'yi davlatlari (Finlyandiya, Estoniya, Latviya, Litva) tarkibiga kiruvchi viloyatlar hududiy-siyosiy jihatdan qayta tuzilgan taqdirda, Litvaning shimohy chegarasi bir vaqtning o'zida Germaniya va SSSR manfaatlari doiralarining chegarasi hisoblanadi. Bunda Litvaning Vilen viloyatiga doir manfaatlarini ikkala tomon ham tan oladi.

2. Polsha davlati tarkibiga kiruvchi viloyatlar hududiy-siyosiy jihatdan qayta tuzilgan taqdirda, Germaniya va SSSR manfaatlari doiralarining chegarasi taxminan Nareva, Visla va Sana daryolari chizig'i bo'ylab o'tadi. Mustaqil Polsha davlatini saqlab qolishdan o'zaro manfaatdorlik hamda bu davlatning chegaralarini belgilash masalalari faqat siyosiy rivojlanish jarayonidagina hal qilinishi mumkin. Nima bo'lganda ham ikkala hukumat bu masalani o'zaro do'stona kelishuv asosida hal qiladi.

3. Yevropa janubi-sharqida SSSRning Bessarabiyaga qiziqishi tan olinadi. Germaniya tomoni bu viloyatlarga nisbatan o'zining hech qanday qiziqishi yo'qligini ma'lum qiladi.

4. Ushbu Ahdnomani ikkala tomon ham qat'iy sir saqlaydi. 1939-yil 23-avgustdagi "Qo'shimcha maxfiy ahdnoma" ga izoh 1939-yil 23-avgustdagi «Qo'shimcha maxfiy ahdnoma»ning 2-bandi birinchi abzatsiga aniqlik kiritish

maqsadida izoh beramiz-ki, uni quyidagi yakuniy tahrirda o'qish lozim: «2. Polsha davlati tarkibiga kiruvchi viloyatlar hududiy-siyosiy jihatdan qayta tuzilgan taqdirda, Germaniya va SSSRning manfaatlari doiralarining chegarasi taxminan Nissa, Nareva, Visla va Sana daryolari chizig'i bo'ylab o'tadi.

